

## O'ZBEKISTON ARXELOGIYASI TARIXI VA BUGUNI

**Musayeva Gavharjon Alisherovna**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi*

*Xo'jayli tumani 26-maktabda Tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada arxeologiyaning qadimgi tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritilgan. Arxeologiya – ijtimoiy fanlar ichida eng yoshi hisoblanadi. Biroq uning ildizlari juda uzoq, ilk insoniyatning vujudga kelish davriga borib taqaladi.*

**Kalit so'zlar:** *arxeologik tadqiqotlar, arxeologiya, tarix, eng qadimgi davr, ibtidoiy davr, tosh qurollar, qazilma hayvon suyaklari, ilk sopol buyumlar, taqinchoqlar, qurol-yarog'lar, tanga pullar, qadimiy arxitektura inshootlari, haykallar, yozuvlar, suratlar.*

Qadimiy yodgorliklar o'zbek xalqi ma'naviyati, qadriyatlari tarixidan darak beruvchi ashyoviy dalillar hisoblanadi. Shu o'rinda ajdodlarimizning tarixini arxeologik yodgorliklar misolida targ'ib etish va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish juda muhimdir. Shu bilan birga, mamlakatimiz xududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va ulardagi topilmalar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ularning qalbida ko'hna tarix va madaniyatga hurmat- ehtirom ruhini uyg'otishda katta ahamiyatga egadir. Arxeologik yodgorliklar O'zbekiston madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi juda muxim omil hisoblanadi. Arxeologiya fani bilan shug'ullanuvchi olimlar arxeolog (qadimshunos)lar deb ataladi. Tarixda hech narsa izziz yo'qolib ketmaydi. Ana shu izni topish arxeologiyaning vazifasidir.

Kishilik jamiyatining vujudga kelish jarayoni uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'z navbatida o'tmishni o'rganish har bir davrning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Arxeologiya fani ham tarixning tarkibiy qismi bo'lib, ijtimoiy fanlar orasida alohida o'rin tutadi.

Arxeologiya – ijtimoiy fanlar ichida eng yoshi hisoblanadi. Biroq uning ildizlari juda uzoq, ilk insoniyatning vujudga kelish davriga borib taqaladi. «Arxeologiya» terminining o'zi ikkita yunon so'zidan iborat bo'lib, «arxayos» - qadimgi va «logos» - fan-bilim ma'nosini anglatadi. Dastlab bu termini mil.avv IV-asrda Aflotun o'zining «Gippiy» diologida, qadim zamon haqidagi fanni nazarda tutib juda keng ma'noda ishlatgan. Shu tariqa bu so'z qadimgi Gretsiyada qo'llanilgan va o'tmish masalalari muxokamasi ma'nosini anglatgan. Vaqt o'tgach uning ma'no doirasi ancha o'zgarib, kengayib borgan va tarix fanining muxim tarmoqlaridan biriga aylangan.

Ma'lumki tarix fani ikki xil manbalarga tayanib ish ko'radi – yozma va moddiy. Tarixning eng qadimgi davrga oid yozma manbalarning yo'qligi arxeologiyaning fan sifatida alohida ajralib chiqishiga sabab bo'lgan. Moddiy madaniyat manbalari yozma manbalardan ko'p marta qadimiyroq. Kishilar yozuvni 5000-6000 yillar oldin o'rgangan bo'lsa, tosh va boshqa ashyolardan qurol yasash bundan oldingi 2,5-3 mln

yillarga borib taqaladi. Demak, kishilik jamiyati tarixining juda katta davri arxeologik manbalarga tayangan holda qayta tiklab talqin qilinadi. Arxeologiya o'tmishni yozma manbalar moddiy manbalardan ko'proq ma'lumot berishga qodir bo'lgan davrgacha o'rganadi. Arxeologiyaning o'rganish ob'yekti xronologiyasi XV–XVII asrlardan yuqoriga ko'tarilmaydi. Ammo ba'zan arxeologiya hatto XX asrga oid yangi ma'lumot berishi mumkin.

O'zbekistonda arxeologiyaning fan sifatida shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni o'zida qamraydi. O'zbek millati qadimiy tarixga ega bo'lsada, uning eng qadimgi davr tarixini o'rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan va bugungi kungacha bu sohada ilmiy izlanishlar davom qilib kelmoqda. O'zbekistonning o'rta asrlar tarixi esa, yozma manbalarda saqlanib qolgan bo'lsada, uzoq davrlargacha mavjud qadimiy qal'alar tarixi faqat odamlar orasidagi rivoyatlarda saqlanib qolgan edi. Ularni saqlash va ilmiy jihatdan o'rganish esa XIX asr oxirlarigacha odamlarning e'tiborida emas edi. Sovetlar humronligi davrida o'tmish tarixiga e'tibor kuchayib, ularni ilmiy jihatdan o'rganish boshlangan bo'lsada, O'zbekiston miqyosida tarixiy yodgorliklarning nihoyatda ko'pligi olimlarga chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borishga imkon bermagan. Ular yodgorliklar to'g'risida deyarli umumiy bo'lgan ma'mumotlarningina to'plashgan. Misol tariqasida Selungir, Teshiktosh, Ko'lbuloq makonlarida olib borilgan tadqiqotlarni keltirish mumkin. Shuningdek, yodgorlik o'rganilgach, u qarovsiz qoldirilgan.

Bu esa, ko'pgina yodgorliklarning yo'qolib ketishiga olib kelgan. O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'tmish tarixiga yangicha nazar bilan qarala boshladi. Har bir yodgorlikni o'rganishda chuqur ilmiy jihatdan yondoshilib, uning mahalliy xususiyatlarini e'tiborga olib, olamshumul yangiliklar ochildi va ochilmoqda.

Tarix taqozosi shunday bo'ldiki, O'rta Osiyo mintaqasida markaziy o'rinni egallovchi O'zbekiston hududi qadim zamonlardan boshlab, o'troq dehqonchilik va ularning chorvador ko'chmanchilar madaniyati bilan o'zaro tasirga kirishi jarayoni yuz bergan makonga aylandi. Mazkur sivilizatsiyasining moddiy yodgorliklarini o'zbek tuprog'i o'z bag'rida saqlab kelyapti. Rossiya mustamlakasi davrining I bosqichi 1819 – yilda kapitan Muravyov boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiyaning yuborilishi bilan bog'liq. Bu ekspeditsiya Xiva xonligi hududidagi turli xil arxeologik yodgorliklarni ro'yxatga oladi. U o'zining ilmiy xulosalarini fransuz, ingliz va nemis tillariga tarjima qilib, bu ilmiy xulosalarga tayangan holda 1 – bo'lib O'zbekiston hududida ibtidoiy odamlar yashaganligi haqida fikr yuritadi.

2). Ikkinchi bosqichda O'zbekiston hududida arxeologik tadqiqotlar anchagina rivojlandi. Unda sobiq SSR fanlar akademiyasining O'rta Osiyo respublikalaridagi filiallari, Leningrad va Moskvadagi ilmiy tashkilotlar, moddiy madaniyat tarixi akademiyasi, sharq madaniyati muzeyi kabi tashkilotlar O'zbekiston hududida arxeologik tadqiqotlarni olib bora boshladi. 1939 – yildan boshlab fanlar akademiyasi tashkil topgan.

3). Uchinchi bosqich 1945 – yildan keyingi davrlarni o'z ichiga oladi. Bu davrda yuqoridagi ekspeditsiyalar tarkibiga o'zgartirish kiritildi.

Yettisuv eksoeditsiyasi - 1944 – 1949 – yillarda Tyanshan Oliy ekspeditsiyasi, 1951 – 1955 – yillarda esa Qirg'iziston arxeologik etnografik ekspeditsiyasi davom ettiradi. 1946 – 1952 – yillarda Farg'ona arxeologiyasini Bernshtant rahbarligida Pomir oloy va Pomir Farg'ona ekspeditsiyalarini o'rgandi 1970 – yilda Farg'ona ekspeditsiyasi tashkilotildi O'zbekistonda arxeologiya fani eng yosh ilmiy sohalardan biridir. Shuni qayd etish lozimki, o'lkani tadqiq etishga oid birinchi qadamlar XIX asrning oxiridan boshlab qo'yilgan edi . Avval bu ish bilan havaskor o'lkashunoslar va kalleksionerlar shug'ullanganlar. Faqat 1 marta , 1884-yilda bu yerda markazdan arxeolog olim N.I. Veselovskiy boshchiligidagi arxeologiya hay'ati yuborilgan edi.

O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Berniy nomidagi davlat mukofotining laurenti, tarix fanlari doktori, taniqli tarixchi arxeolog olim, arxeologiya fanining chuqur bilimdoni, tashkilotchi rahbar, ezgulik yo'lini o'zining hayot tamoyili qilib olgan ustoz va bag'ri keng inson, professor Ahmadali Asqarov. Hozirda O'zbekiston arxeologiyasini o'rganish ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu ish bilan maxsus institutlar, universitetlar, pedagogika institutlari va turli bo'limlar shu g'ullanmoqdalar. Ular qoshida ko'plab arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilgan.

So'nggi o'n yillikda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni qayta tiklanadigan zaxira ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa yodgorliklarni yaratish ishlariga ancha samarali ta'sir qiladi. XX asrning 90-yil oxirlarida yodgorliklarning 7216tasi olingan bo'lsa, shulardan 1595tasi me'moriy yodgorliklar, 7106tasi mahobatli san'at asarlari, 2115tasini arxeologik yodgorliklar tashkil qildi. Ulardan 1831tasi respublika miqyosidagi davlat tasarrufiga olingan bo'lib, 513tasi me'moriy obidalari 98 tasi mahobatli san'at asarlari, 1213 tasi arxeologik va 27 tasi tarixiy yodgorliklardir. Bunday yodgorliklar ayniqsa, Samarqand (997), Buxoro (804) Qashqadaryo (592), Toshkent (562), Farg'ona (512) viloyatlarida ko'p. Bu butun hududi qadimiy madaniyat va sivilizatsiya o'chog'i bo'lganligidan dalolat beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Little, Barbara J. (2006), "Why are there two different spellings: archaeology and archeology?", Amerika arxeologiyasi jamiyati, dan arxivlangan asl nusxasi 2009 yil 5-dekabrda
2. Renfrew and Bahn (2004 [1991]:13)
3. Sinclair A (2016), "The Intellectual Base of Archaeological Research 2004-2013: a visualisation and analysis of its disciplinary links, networks of authors and conceptual language", Internet arxeologiyasi (42), doi:10.11141/ia.42.8
4. Haviland et al. 2010 yil, p. 7,14